



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 33-41 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MEHNAT HAQI BO'YICHA HISOB-KITOBBLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Ametova Nasiba Danilovna

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Email: ametovanasiba95@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobi takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, 6710 – «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti bo'yicha ishchi schyotlar ochilishi taklif qilingan. Xodimlarning mehnatiga qo'shimcha va ustama haqlar turlari turkumlangan.

Kalit so'zlar: Asosiy ish haqi, rag'batlantirish, kompensatsiya, ishlamagan vaqt uchun to'lovlar, haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar, ishchi schyotlar.

Аннотация: В статье освещены вопросы совершенствования учёта расчётов с работниками по оплате труда. В частности, предложено открытие субсчетов к счету 6710 – «Расчёты с работниками по оплате труда». Классифицированы виды доплат и надбавок к заработной плате работников.

Ключевые слова: Основная заработная плата, поощрения, компенсации, выплаты за неотработанное время, другие начисления за фактически выполненную работу, счета работников.

Annotation: The article discusses issues related to improving the accounting of settlements with employees for wages. In particular, it proposes the opening of sub-accounts to account 6710 – «Settlements with employees for wages». The types of additional payments and bonuses to employees' wages are classified.

Keywords: Basic salary, incentives, compensations, payments for non-working time, other payments accrued for actual work performed, employee accounts.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

Mazkur ustuvor yo'nalishda mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish, kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish, aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan. Yuqoridagi vazifalar o'z navbatida xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish zaruratini bildiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar tushunchalariga mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bildirilgan.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobi tushunchalariga bir qator mualliflik fikrlarini bildirgan.

Xususan, I.N.Bogataya, N.N.Xaxonova «Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobini quyidagi algoritm bo'yicha hisoblanishi kerak:

- xodimlarga ish haqi va boshqa to'lovlarni dastlabki xujjatlar asosida hisoblash;

- ish haqidan ushlanadigan barcha ushlanmalarni hisoblash;
- davlat byudjetiga tashqari jamg'armalarga sug'urta badallarini hisoblash;
- naqd puldagi ish haqini hisobda aks ettirish;
- tarqatilmay qolgan ish haqi summacini depozitga olish»[4] deb izohlagan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari K.B.Urazov, M.E.Po'latov tomonidan xodimlar bilan mehnat haqi hisobi masalalari tadqiq qilib o'rganilgan. Bunda mualliflar korxona xodimlari va ular mehnatining hisobi, xodimlar mehnatiga haq to'lashning tizimlari va shakllari, xodimlar daromadlarining turlari va tarkibi, xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblarga doir hisob registrlari, xodimlarga asosiy ish haqini hisoblash tartibi va hisobi[5] kabi masalalarni tadqiq qilish bilan chegaralangan.

Iqtisodchi olim A.A.Karimov mehnat va ish haqini hisoblashni buxgalteriya hisobining eng muhim va murakkab sohalaridan biri, aniq va tezkor ma'lumotlarni talab qiluvchi soha sifatida talqin qilgan. Ish haqini hisoblashda xodimlar sonining o'zgarishi, ish vaqtdan foydalanish, ish vaqtining o'zgarishi, mehnatga haq to'lash va korxonaning har bir xodimi tomonidan hisoblab chiqiladigan ish haqi fondi, to'lov turlari va xodimlarning toifalari ish haqini hisobga olish zarur bo'ladi[3].

METODOLOGIYA

Tadqiqotning axborot ta'minotini Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika Qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, Taxiotosh tumani «Taxiotosh don maxsulotlari» AJ biznes reja va hisobot ma'lumotlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifati dialektika, umumilmiy metodlardan: ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash, analogiya kabi nazariy metodlar; kuzatish, o'lchash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil (moliyaviy tahlil, statistik tahlil va b.) kabi empirik metodlar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xodimlar bilan hisob-kitoblarning hozirgi holatini baholash bo'yicha monografik tadqiqotlarimiz «Taxiotosh don mahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati misolida o'tkazildi. Aksiyadorlik jamiyatining shtat jadvallari ma'lumotlarini o'rganimizda xodimlar soni va tarkibiy tuzilmasi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Yani, AJda boshqaruv xodimlar, xizmat qo'rsatuvchi xodimlar, ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar, mexanik sexi xodimlari, elektrik xodimlar, qarovul xodimlar, sog'liqni saqlash meditsina punkti xodimlari, idish va qop tayorlash xodimlaridan tarkib topgan.

Boshqaruv xodimlariga raxbarlar, mutaxassislar, hisobchi xodimlar, kadrlar bo'limi, boshqa ichlab chikarishdagi texnik xodimlar, biznesni rivojlantirish va strategiyalik rejalashtirish bo'limi xodimlari, ixtisodchilar, axborot kommunikatsiya texnologiya bo'limi xodimlari hamda qishloq xo'jaligi xodimlari kiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga oshxona va boshqa xodimlar kiradi.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga elevator xodimlari, melnitsa (tigirmon) xodimlari, tayyor maxsulotni (unni) saqlash omborxona xodimlari, omuxta yem ishlab chiqarish sexi xodimlari, urug' tayyorlash sexi xodimlari, laborotoriya bo'limi, logistika va transport xizmati bo'limi hamda yuklash va tushirish ishlarini bajarish bo'limi xodimlaridan tashkil topgan.

Mexanik sexi xodimlariga uskunalarni yig'ish va montaj qilish, sexdagi barcha uskunalar texnik holatini nazorat qilish xodimlari kiradi.

Elektrik sexi xodimlariga dvigatellar, transformatorlar va kabel liniyalarida band bo'lgan xodimlar kiradi.

Qorovullarga esa, qo'riqchilar, ombor va sexlarining kirish eshigidagi qorovullar.

Sog'liqni saqlash va meditsina punkti xodimlariga doktorlar va medsestralalar.

Idish va qop tayorlash xodimlariga Don solingan qoplarni yopadi (tikib, bog'lab, skoba bilan yoki termoyapishtirish usulida), shikastlangan qoplarni ta'mirlaydi, qoplarga yozuv, raqam, logotip, mahsulot nomi va sanani bosib chiqadi.

Aksiyadorlik jamiyatida xodimlarga haq to'lash uchun mablag'lar manbai Respublikamizning normativ-huquqiy hujjatlari va mahalliy normativ hujjatlarga asoslangan holda mehnatga haq to'lash fondi shakllantiriladi.

AJda xo'jalik operatsiyalarini hujjatlarda rasmiylashtirish uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq majburiy tarzda qo'llanilishi lozim bo'lgan boshlang'ich hujjat shakllari, daslabki buxgalteriya hujjatlari shakllari hamda AJning nizomida mustaqil ravishda ishlab chiqilgan boshlang'ich hujjat shakllari qo'llaniladi.

«Taxiatosh don mahsulotlari» AJda xodim va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hisoblanadi. Shuningdek, mehnat huquqi normalarini o'z ichiga olgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ham qo'llaniladi. Xodimlarning ish haqi miqdori korxona tomonidan mustaqil belgilanadi va bu miqdor xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida qayd etiladi.

«Taxiatosh don mahsulotlari» AJning biznes va hisob siyosatida mehnat haqi va xodimlar bilan boshqa operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar quyidagicha turkumlangan:

1) *mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar*: asosiy ish haqi; rag'batlantirish; kompensatsiya; ishlamagan vaqt uchun to'lovlar; haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar.

2) *xodimlar bilan boshqa hisob-kitoblar*: xodimlar bilan xizmat safarlari bo'yicha hisob-kitoblar hisobi; xodimlarning aliment to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblari; moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar¹.

«Taxiatosh don mahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatida xodimlar mehnatiga qo'shimcha va ustama haq to'lash mehnat qonunchiligi, AJning ichki tashkiliy-uslubiy hujjatlari hamda lavozim yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya, ishlamagan vaqt uchun to'lovlar va haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar kiradi (1-jadval).

¹ «Taxiatosh don mahsulotlari» AJ xodimlari mehnatga haq to'lash bo'yicha nizomi.

1-jadval

«Taxiatosh don mahsulotlari» AJda xodimlarning mehnatiga qo'shimcha va ustama haqlar tasnifi².

T\r	Qo’shimcha va ustama haqlar turlari	Moliyalashtirish manbalari
	Qo’shimcha haq turlari:	
1. Rag’batlantirish xususiyatiga ega to’lovlar		
1.	Yillik ish yakunlari bo’yicha pul mukofoti	Biznes reja va shtat jadvali asosida
2.	AJning mukofotlash to’g’risidagi nizomida nazarda tutilgan rag’batlantirish xususiyatiga ega to’lovlar	
3.	Kasb mahorati uchun tarif stavkalari va maoshlarga ustamalar	
4.	Ta’tilga qo’shimcha haqlar	
5.	Ko’p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to’lovlar	
6.	Ratsionalizatorlik taklifi uchun to’lov	
7.	Mehnat natijalari bilan bog’liq bo’lmagan bir yo’la beriladigan mukofotlar	
8.	Noqulay iqlim sharoiti uchun rayon koeffitsiyenti.	
2. Kompensatsiya		
1.	Tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo’shimcha to’lovlar	Biznes reja va shtat jadvali asosida
2.	O’zining asosiy ishi bilan birga, ishda vaqtincha bo’lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar	
3.	Oziq-ovqat va yo’l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo’l chiptalarining qiymatini qoplash	
3. Ishlamagan vaqt uchun to’lovlar		
1.	Yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’til uchun to’lov, shuningdek ushbu ta’tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to’lovi	Biznes reja va shtat jadvali asosida
2.	O’qish bilan bog’liq ta’til va ijodiy ta’tillar uchun to’lov	
3.	O’n ikki yoshga to’lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o’n olti yoshga to’lmagan nogironligi bo’lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo’shimcha ta’til uchun to’lov	
4.	Asosiy ish haqi qisman saqlab qolingan holda majburiy ta’tilda bo’lgan xodimlarga beriladigan to’lovlar	
5.	Xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to’lov	
6.	Mehnat layoqatini vaqtincha yo’qotganlik uchun qo’shimcha to’lov	

² «Taxiatosh don mahsulotlari» AJ ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

7.	Ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqti uchun yoki kam haq toʻlanadigan ishni bajarganlik uchun toʻlov	
8.	Ish beruvchining mablagʻlari hisobidan toʻlanadigan pensiyalar va nafaqalarga qoʻshimchalar	
4. Haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa toʻlovlar		
1.	Bugʻdoy xom-ashyo materialini qabul qilish vaqtida ish vaqtidan qoʻshimcha (ishdan keyingi vaqtda) ishlaganlik uchun haq	Biznes reja va shtat jadvali asosida
2.	Taʼtil kunlari va dam olish kunlarida ishlaganlik uchun haq	
3.	Ish vaqtidan tashqari tunda ishlaganlik uchun haq	

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha hisob-kitoblar natijalari AJning buxgalteriya balansi va «1-Mehnat» statistik hisobotlarida aks ettiriladi. Tadqiqotlar olib borish natijasida hisobotlarni tahlil qilib quyidagi ma'lumotlarga erishdik (2-jadval).

Ya'ni, mehnatga haq to'lash xarajatlari 2021 yilda 7 486 432 ming so'mni, 2024 yilda 7 991 424 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda eng katta mehnat haqi xarajatlar ishchilarga (59,0 %), rahbarlar (14,3 %) va xizmatchilar (9,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Eng kichik xarajatlar boshqa xodimlar (9,3 %) va mutaxassislar (7,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha qilib aytganda, korxonaning jami ish haqi xarajatlari 2024 yilda 2021 yilga nisbatan 106,74 foizga oshgan. Ish haqi xarajatlarning o'sishiga ishchilar soni yoki maoshlarning oshganligi sabab bo'lgan. Albatta, korxonada ish haqi xarajatlarning oshishini ijobiy baholab bo'lmaydi. Sababi ish haqi xarajatlari oshsa, mahsulot tannarxi ham so'zsiz o'sish tendensiyalariga ega bo'ladi.

2-jadval

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda xodimlarga hisoblangan ish haqi bo'yicha hisob kitoblarning tahlili (ming so'm)³.

№	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarishi (+;-) 2021-2024	
						ming so'm	%
1	Ishchilar	4218912	4273856	4646304	4721112	502200	111,90
2	Xizmatchilar	704704	829812	786552	752832	48128	106,82
3	Rahbar xodimlar	1175616	1208400	1140480	1148928	-26688	97,73
4	Mutaxassislar	648000	676200	584760	622800	-25200	96,11
5	Boshqa xodimlar	739200	887436	830676	745752	6552	100,89
6	JAMI	7486432	7907384	7988772	7991424	504992	106,74

Xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashishlarning yana bir turi rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlardir. «Taxiatosh don mahsulotlari» AJda rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarga, xodimlarni yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, kasb mahorati uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar, ta'tilga qo'shimcha haqlar,

³ «Taxiatosh don mahsulotlari» AJ ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov, noqulay iqlim sharoiti uchun rayon koeffitsiyenti hamda mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar kiradi.

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda 2021-2024 yillarda xodimlarga hisoblangan rag'batlantirish pullari bo'yicha hisob kitoblarni tahlil qilib o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik (3-jadval).

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda 2024 yilda 2021 yilga nisbatan ishchilarni rahbatlantirish 154 061 ming so'mga, 71,24 % ga kamaygan, xizmatchilarni rahbatlantirish 27 415 ming so'mga, 69,61 % ga kamaygan, rahbar xodimlarni rag'batlantirish esa 48 169 ming so'mga, 65,33 % ga kamaygan, mutaxassislar 30227 ming so'mga, 64,66 % ga va boshqa xodimlarni rahbatlantirish 48 211 ming so'mga, 51,32 % ga kamaygan. Jami 2024 yilda 2021 yilga nisbatan xodimlarga hisoblangan rag'batlantirish pullari 308 083 ming so'mga yoki 67,55 % kamaygan. Bu kamayish ko'rsatkichlarini salbiy baholash lozim.

3-jadval

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda xodimlarga moddiy rag'batlantirish bo'yicha hisob kitoblarning tahlili (ming so'm)⁴.

№	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarishi (+;-) 2021-2024	
						ming so'm	%
1	Ishchilar	535801	547054	383552	381740	-154061	71,24
2	Xizmatchilar	90202	106216	65185	62787	-27415	69,61
3	Rahbar xodimlar	138952	140377	66346	90783	-48169	65,33
4	Mutaxassislar	85536	83848	59264	55309	-30227	64,66
5	Boshqa xodimlar	99053	88546	51237	50842	-48211	51,32
6	JAMI	949544	966041	625584	641461	-308083	67,55

«Taxiatosh don mahsulotlari» AJda xodimlarga hisoblangan moddiy yordam pullari bo'yicha hisob-kitoblarning tahlili o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik (4-jadval).

4-jadval

«Taxiatosh don maxsulotlari» AJda xodimlarga xisoblangan moddiy yordam pullari bo'yicha hisob kitoblarning tahlili (ming so'm)⁵.

№	Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	O'zgarishi (+;-) 2021-2024	
						ming so'm	%
1	Ishchilar	299542	311991	318473	258247	-41295	86,21
2	Xizmatchilar	51444	61407	58598	48991	-2453	95,23
3	Rahbar xodimlar	84644	87851	84167	69786	-14858	82,44
4	Mutaxassislar	46008	50187	47129	42584	-3424	92,55
5	Boshqa xodimlar	53961	62127	58561	48428	-5533	89,74
6	JAMI	535599	573563	566928	468036	-67563	87,38

⁴ «Taxiatosh don mahsulotlari» AJ ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

⁵ «Taxiatosh don mahsulotlari» AJ ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

Yani, 2024 yilda 2021 yilga nisbatan xodimlarga moddiy yordam pullarini berish 67 563 ming so'mga yoki 87,38 % ga kamaygan. Albatta, xarajatlarni tejash ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning tannarxini pasaytiradi. Xarajatlarni tejashni ijobiy baholash lozim. Lekin, xodimlarni rag'batlantirmaslik ish unumdorligining pasayishiga, o'z ishiga bo'lgan qiziqishning yo'qolishiga va kadrlar almashinuvinining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Xodimlarni moddiy yordam jihatidan rahbatlantirish korxona uchun juda katta ijobiy natijalar berishi mumkin. Moddiy yordam puli bilan rag'batlantirilgan xodim o'z ishiga ko'proq mas'uliyat va qiziqish bilan yondashadi. Bu natijasida ishning unumdorligi oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-son BHMS)da xodimlarga mehnatga haq to'lash bo'yicha joriy qarzlarni to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshirilishi belgilangan:

6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»;

6720 «Deponentlangan ish haqi»;

6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar»[2].

Mehnat haqining o'sishi investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish jarayonlari kompleks avtomatlashtirish va raqaamlashtirish, ish vaqtidan unumli foydalanish va xodimlar malakasini oshirish asosida mehnat unumdorligini oshirishga bog'liq. Shuning uchun nafaqat korxona bo'yicha, balki har bir tarkibiy bo'linma bo'yicha mehnat haqi fondidan foydalanishni nazorat qilishning ahamiyati oshib bormoqda.

Mehnat haqi fondidan foydalanishni nazorat qilish xo'jalikning ichki nazorat (audit) bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday nazorat rahbar, moliya hisob markazi xodimlari tomonidan mehnat haqi hisoblashga doir hujjatlarning rasmiylashtirilishini, ishbay rassenkalar va ish normasi, tarif stavkalari va maoshlar qo'llanilishini tekshirish hamda mehnat haqi fondidan foydalanish ko'rsatkichlarini umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Lekin, amaliyotda bu talablarni ta'minlaydigan batafsil axborot tizimi yetarlicha shakllantirilmagan. Shu bois, fikrimizcha, «Taxiatosh don maxsulotlari» AJda 6710 – «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti bo'yicha quyidagi ishchi schyotlar ochilishini tavsiya etamiz (5-jadval).

«Taxiatosh don mahsulotlari» AJda xodimlarga hisoblangan xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar, xodimlar bilan rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar, xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar, xodimlar bilan ishlamagan vaqt uchun to'lovlarni hisoblash va xodimlar bilan haqiqatda bajarilgan ish uchun hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriyasida quyidagi schyotlar korrespondensiyasini tuzish tavsiya etiladi.

Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga, TMZlarni tayyorlash va sotib olish muomalalarida band bo'lgan xodimlarga, asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish sexlaridagi xodimlarga, mahsulot sotishda, boshqaruv va boshqa muomalalarda band bo'lgan xodimlarga ish haqi hisoblanganda quyidagi schyotlar korrespondensiyasini tuzish tavsiya etiladi.

5-jadval

«Taxiatosh donmahsulotlari» AJda 6710 – «Myehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyotida ochish tavsiya etilgan ishchi schetlar⁶.

	Tavsiya etilgan ishchi schyotlar
6710 – «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»	6711 – «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar»
	6712 – «Xodimlar bilan rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar»
	6713 – «Xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar»
	6714 – «Xodimlar bilan ishlamagan vaqt uchun to'lovlarni hisoblash»
	6715 – «Xodimlar bilan haqiqatda bajarilgan ish uchun hisob-kitoblar»

Debet 0810-0890 – «Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi» schyotlar, 1010-1090 – «Materiallarni hisobga oluvchi» schyotlar, 2910-2990 – «Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar» schyotlar, 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti; 2310 – «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti, 2510 – «Umumishlab chiqarish sexlari» schyoti, 2310 – «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar» schyoti, 9410 – «Sotish xarajatlari» schyoti; 9420 – «Ma'muriy xarajatlar» schyoti, 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

Kredit 6711 – «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Hisoblangan ish haqidan daromad solig'i summasi hisoblanganda quyidagi schyotlar korrespondensiyalanadi.

Debet 6711 – «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Kredit 6410 – «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti.

Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga, TMZlarni tayyorlash va sotib olish muomalalarida band bo'lgan xodimlarga, asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish sexlaridagi xodimlarga, mahsulot sotishda, boshqaruv va boshqa muomalalarda band bo'lgan xodimlar bilan rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi schyotlar korrespondensiyasini tuzish tavsiya etiladi.

Debet 0810-0890 – «Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi» schyotlar, 1010-1090 – «Materiallarni hisobga oluvchi» schyotlar, 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti; 2310 – «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti, 2510 – «Umumishlab chiqarish sexlari» schyoti, 2310 – «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar» schyoti, 9410 – «Sotish xarajatlari» schyoti; 9420 – «Ma'muriy xarajatlar» schyoti, 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

Kredit 6712 – «Xodimlar bilan rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Hisoblangan rag'batlantirish summalaridan daromad solig'i summasi hisoblanganda quyidagi schyotlar korrespondensiyalanadi.

Debet 6712 – «Xodimlar bilan rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Kredit 6410 – «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti.

Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga, TMZlarni tayyorlash va sotib olish muomalalarida band bo'lgan xodimlarga, asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish sexlaridagi xodimlarga, mahsulot sotishda,

⁶ Tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

boshqaruv va boshqa muomalalarda band bo'lgan xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi schyotlar korrespondensiyasini tuzish tavsiya etiladi.

Debet 0810-0890 – «Kapital quyilmalarni hisobga oluvchi» schyotlar, 1010-1090 – «Materiallarni hisobga oluvchi» schyotlar, 2010 – «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti; 2310 – «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti, 2510 – «Umumishlab chiqarish sexlari» schyoti, 2310 – «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar» schyoti; 9410 – «Sotish xarajatlari» schyoti; 9420 – «Ma'muriy xarajatlar» schyoti, 9430 – «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

Kredit 6713 - «Xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Hisoblangan rag'batlantirish summalaridan daromad solig'i summasi hisoblanganda quyidagi schyotlar korrespondensiyalanadi.

Debet 6713 - «Xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti.

Kredit 6410 - «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti.

XULOSALAR.

Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar hisobi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlari tadqiq qilingan holda xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblarning hisobi va axborot manbalari ochiqlandi.

2. Xodimlar bilan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya, ishlamagan vaqt uchun to'lovlar va haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar guruhlarga ajratilgan holda tavsiflab berildi.

3. 6710 – «Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» schyoti bo'yicha, 6711 – «Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti, 6712 – «Xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti, 6713 – «Xodimlarga kompensatsiya to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti, 6714 – «Xodimlar bilan ishlamagan vaqt uchun to'lovlarni hisoblash» schyoti va 6715 – «Xodimlar bilan haqiqatda bajarilgan ish uchun hisob-kitoblar» ishchi schyotlar ochish taklif qilindi. Biz taklif qilayotgan ishchi schetlar ro'yxati, agar yil boshida hisob siyosatini shakllantirishda inobatga olinsa, moliya yili davomida hisob-kitoblarni samarali tashkil etish va amalga oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahrirdagi).
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-son BHMS).
3. A.A.Karimov. Buxgalteriya hisobi . Darslik. T: «Shark» 2014, 292 b.
4. I.N.Bogataya, N.N.Xaxonova «Buxgalterskiy finansoviy uchet»: Uchebnik dlya vuzov.– Moskva. 2011. – 184 s.
5. K.B.Urazov, M.E.Po'latov Buxgalteriya hisobi. Darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi. – T. 2020. 220-247 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

